

## 15-mavzu: Fazoga sayr (Selli Rayd)

### Darsning maqsadi:

**a)ta'limiy:** o`quvchilarni matn bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga koinot ilmiga va uning sir-asrorlarini o`rganishga qiziqtirish.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:**Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish,"Kim hozirjavob" o`yini, savol-javob, ta'limiy o`yinlar.

**Dars jihozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

### Darsning borishi:

#### I.Tashkiliy qism:

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

#### II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "*Kitob va boylik*" hikoyatini o`quvchilar ifodali o`qib, mazmunini so`zlab beradilar.

#### "Yosh aktyor" o`yini.

Hikoyat o`quvchilar tomonidan sahnalashtirib namoyish qilinadi.

#### III.Yangi mavzu bayoni.

**"Kim hozirjavob?" o`yini.** O`quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.

1.Koinot haqida nimalarni bilasiz?

2. Fazogirlar haqida bilganlaringizni so`zlab bering.

**Bugungi mavzu e'lon qilinadi:** "*Fazoga sayr*" matni. Matn muallifi Selli Rayd haqida ma'lumot beriladi.

## ***SELLI RAYD***

***Selli Rayd – amerikalik astronavt, Amerikadan kosmosga chiqqan birinchi ayol. U koinotga oid qiziqarli ma'lumotlar haqida yozib qoldirgan. Uning fazo kemasidan tashqarida ishlash uchun skafandrni qanday kiyish haqida yozganlarini o'qib, yangi bilimlarni bilib oling.***

Yangi mavzu o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.


**Lug'at ishi:**

**Skafandr** – kosmosga uchishda kiyiladigan maxsus kiyim

**Dubulg'a** – maxsus bosh kiyim

*"Fazoga sayr" matni o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi.*

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.** Fazogirlarning maxsus kiyimining qismlari rasm asosida tanishtiriladi.



**Test savollari.** O`quvchilar darslikda berilgan test savollarini yechadilar.

**Savollar.** O`quvchilar bilan matn yuzasidan berilgan savollar asosida savol-javob o`tkaziladi.

1. Matnga ko`ra, fazo kemasi va Yerdan bo`lish o`rtasida qanday farq mavjud?
2. Nima uchun fazogirlar fazoda bo`lganlarida maxsus kiyim kiyishlari kerak? Matnga asoslanib, ikkita sabab keltiring.
3. Nima sababdan fazogirlar fazoga chiqishlari uchun bir necha soat tayyorgarlik ko`rishlari kerak bo`ladi?
4. Fazogirlar har doim ikki kishi bo`lib fazoga chiqishlarining sababini ayting.
5. Nima sababdan havo shuluzida uchinchi fazogirning bo`lishi talab qilinadi?

6. Muallif: *"Fazogirlar so'nggi marta burunlarini qashib oladi"*, degan jumlanı ishlatgan. Bunga sizning javobingiz qanday?

**"Quvnoq daqıqa!"** Tinglang va savollarga javob bering.

1. Shoh Anushervon ov payti kimni uchratdı? U qanday ish bilan mashg'ul edi?

2. Cholning podshohni hayratda qoldirib, ming tanga in'om qilishiga sabab bo'lgan javobini toping.

3. Chol ekayotgan daraxt qanday qilib uch marta hosil berdı?

4. Donolik va topqirlikning hayotingizda keltirgan foydalari haqida gapirib bering.

**Mashq daftar bilan ishlash.**

**1-topshiriq.** Testlarni yeching.

1. Matnning asosiy mazmuni nimadan iborat?

A. Nima sababdan fazogirlar birgalashib ishlashi haqida

B. Fazo kemasi qanday ekani haqida

D. Fazogirlarning fazoda topshiriqni qanday bajarishlari haqida

**E.** Ochiq fazoda ishlash qanday olib borilishi haqida

2. Fazogirlar fazo kemasidan tashqariga chiqishlarining sabablaridan birini belgilang?

**A.** Ta'mirlash ishlari uchun

B. Yerni yaxshiroq ko'rishlari uchun

D. Sovib olish uchun

E. Sarguzasht izlash uchun

3. Nima uchun fazogirlar har doim ikki kishi bo'lib fazoga chiqadilar?

**A.** Bir-birlariga yordam berish uchun

B. Fazoda uzoqroq qolish uchun

D. Kemadan uzoqlashib ketmasliklari uchun

E. Jarayon yanada qiziqroq bo'lishi uchun

4. Skafandr ichidagi rezina naychalar fazogirlarga qanday yordam beradi?

A. Ular fazogirlarni mustahkam ushlab turadi.

B. Ular fazogirlarni kislorod bilan ta'minlaydi.

**D.**Ular fazogirlar tanasini sovitib turishga xizmat qiladi.

**E.**Fazogirlarning boshqa ekipaj a'zolari bilan aloqada bo'lib turishiga xizmat qiladi.

**5.** Fazogir ochiq fazoda ekanida uni kemadan uzoqlashib ketmasligiga nima yordam beradi?

**A.**Batareya qutisi

**B.**Maxsus fazo etiklari

**D.**Ingichka simli ilgaklar

**E.**Qo'l bilan tutib turish

**2-topshiriq. Savollarga javob yozing.**

O`quvchilar berilgan savollarga javob yozadilar.

**3-topshiriq.** Tasavvur qiling, siz fazogir bo'lmoqchisiz. Maqoladagi ma'lumotlardan foydalanib, fazogir bo'lishning bitta yoqqan va bitta yoqmagan jihatini ifodalovchi misollar keltiring va javobingizni asoslang.

Bu topshiriq uyga vazifa qilib beriladi.

**V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**  
**Savol-javob o`tkaziladi.**

– Matndan nimalarni bilib oldingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish.** *Matnni ifodali o`qib, erkin so'zlab berishga tayyorlaning. Tasavvur qiling, siz fazogir bo'lmoqchisiz. Matndagi ma'lumotlardan foydalanib, fazogir bo'lishning yoqqan va yoqmagan jihatlarini ifodalovchi misollar keltiring va javobingizni asoslang.*